



The importance of reading techniques in native and foreign language education for primary school students, and learning a second language through literary texts

Surayyo MUMINOVA¹

School No. 20 of Yangiyo'l District

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

10 April 2025

Accepted 2 May 2025

Available online

25 June 2025

Keywords:

language skills,
reading comprehension,
listening comprehension,
reading techniques,
second language,
literary texts,
text inference.

ABSTRACT

This article presents the findings from classes and tests aimed at teaching Russian to non-Russian speaking children through literary texts, primarily focusing on developing reading comprehension and listening skills. The results are based on a two-month experiment with a test group of 2nd-grade (8-year-old) students who receive their education in the Uzbek language. The experiment examines how this test group reads and understands "Comics based on fairy tales for young children," explores the advantages of using literary texts in language learning, and demonstrates how such texts can more effectively facilitate the natural acquisition of second language skills. Additionally, the article tracks the improvement in reading technique dynamics as the respondents work through the 2nd-grade Russian language textbook to increase their reading speed. Initial test results suggest that for high-quality acquisition of language skills such as reading comprehension, writing, and listening comprehension, the expected outcomes are achieved only when the child possesses good reading techniques in both their native language and the language being studied.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp81-87>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Highest-category teacher, Secondary School No. 20 of Yangiyo'l District, Tashkent Region.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili va chet tili ta'limida o'qish texnikasining ahamiyati, badiiy matnlar orqali ikkinchi tilni o'rganish

Kalit so'zlar:

til ko'nikmalari,
o'qib tushunish,
tinglab tushunish,
o'qish texnikasi,
ikkinchi til,
badiiy matnlar,
matnni xulosalay olish.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola rusiyzabon bo'lmagan bolalarda rus tilini badiiy matnlar orqali o'rganish va, asosan, tilning o'qib tushunish va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar hamda sinov natijalari orqali olingan xulosalarni o'zida jamlaydi. Bu ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan 2-sinf (8 yoshli) o'quvchilaridan tashkil topgan sinov guruhining 2 oy davomidagi tajriba natijalaridir. Tajriba ushbu sinov guruhi "Kichik yoshdagi bolalar uchun ertak asosida ishlangan komiks" («Комикс на основе сказки для детей младшего возраста»)larni qanday o'qishi va tushunishini, til o'rganishda badiiy matnlarning afzalliklarini, bunday matnlar ikkinchi til ko'nikmalarini osonroq va tabiiyroq hosil bo'lishida ancha samarali ekanini ko'rib chiqadi. Shuningdek, maqolada respondentlarning o'qish tezligini oshirish maqsadida 2-sinf rus tili darsligi bilan to'liq ishlab, ularning o'qish texnikasining oshirilish dinamikasi kuzatiladi. Ilk sinov natijalaridan shunday xulosa kelib chiqadiki, o'qib tushunish, yozish va tinglab tushunish kabi til ko'nikmalarining sifatli o'zlashtirilishi uchun bola ona tilida ham, o'rganayotgan tilida ham yaxshi o'qish texnikasiga ega bo'lgandagina kutilgan natijaga erishiladi.

Значение техники чтения в обучении родному и иностранному языкам для учащихся начальных классов, освоение второго языка посредством художественных текстов

Ключевые слова:

языковые навыки,
понимание прочитанного,
аудирование,
методы чтения,
второй язык,
литературные тексты,
вывод текста.

АННОТАЦИЯ

Данная статья обобщает результаты занятий, направленных на изучение русского языка неносителями языка посредством художественных текстов, с акцентом на развитие навыков чтения и аудирования, а также выводы, полученные в ходе тестирования. Это результаты двухмесячного эксперимента в группе учащихся 2-го класса (8 лет), обучающихся на узбекском языке. Эксперимент рассматривает, как эта группа читает и понимает «Комиксы на основе сказок для детей младшего возраста», преимущества художественных текстов в изучении языка, и как такие тексты более эффективны для более легкого и естественного формирования навыков второго языка. Также в статье описывается работа респондентов с учебником русского языка для 2-го класса с

целью повышения скорости чтения и наблюдается динамика улучшения их техники чтения. Результаты первоначального тестирования приводят к выводу, что для качественного усвоения таких языковых навыков, как чтение, письмо и аудирование, ожидаемый результат может быть достигнут только тогда, когда ребенок обладает хорошей техникой чтения как на родном, так и на изучаемом языке.

Badiiy matnlar bilan sinov guruhlarida ishlash tajribalari talaygina bo'lib, ulardan ko'zlangan maqsadlar va sinov guruhlarining yoshi, ta'lim shakli va usullari turlicha. Ingliz tili chet tili sifatida o'rganiladigan Bangladesh universiteti talabalari bilan o'tkazilgan tadqiqotda badiiy adabiyotning til ko'nikmalari (o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish va gapirish)ga ta'siri o'rganilgan. 30 nafar sinov guruhi a'zolaridan 28 nafari ilk so'rovnomadayoq ingliz tilini badiiy adabiyot bilan o'rganishni ma'qul deb topishgan. 70% respondentning so'rovnomadagi fikriga ko'ra til ko'nikmalari orasida ular uchun eng murakkabi tinglab tushunish bo'lsa-da ular ingliz tilidagi adabiy janr namunalari (hikoya, roman, drama, masallar)ni o'qib, tilni amalda qo'llashni o'rganish eng serunum, qiziqarli va oson deb hisoblashgan.(5) Muallifning fikriga ko'ra voqeiy (autentik) matnlar (ya'ni badiiy asarlar) tilni tezroq va ta'sirliroq o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ushbu tadqiqotda rolli o'yinlar, suhbat, anketa bilan ishlash, guruh bo'lib ishlash, fikr almashish, axborot bo'shliqlarini to'ldirish, vizual ta'sirlar va boshqa usullardan foydalanilgan.

Keyingi tadqiqot universitetda chet tilini o'rganayotgan talabalar tomonidan o'rganilayotgan til bilan bog'liq adabiyot kursini va kursni o'qitish uslubini tadqiq etishga qaratilgan. (9) Senem Soyerning ushbu tadqiqotida kommunikativ yondashuvga asoslangan, talabalar faolroq rol o'ynaydigan o'qitish uslubiga ustunlik berilgan va ijodiy drama usulidan foydalanilgan. (Qriqqal'a universiteti San'at va fanlar fakulteti arab tili tarjima va tarjimonligi bo'limida tahsil olayotgan talabalar bilan olib borilgan zamonaviy davr arab adabiyoti kursi va o'qitish metodikasi ko'rib chiqilgan).

„O'quvchilarim bilan o'tkazgan tajribalarim va suhbatlarimdan ularning ko'pchiligi mutolaani odat qilmaganlari tufayli tildan yaxshi foydalana olmaganlari va tasavvurlari ham boy emasligini ko'rganman“, deydi tadqiqotchi Celkan Go'l. (11) Uning tadqiqotida sinov guruhi aynan kichik yoshdagi bolalar edi. Tadqiqotchi o'quvchilar bilan Jyul Vernning „Dunyo bo'ylab 80 kun“ va „Oyga sayohat“ asarlarini o'rganib o'qish sevgisi va odatlari faqat kichik yoshdan hosil qilinganda til ta'limi va bilish jarayonini tezlashtiradi, rivojlantiradi; bolalar adabiyoti bolaning til bilish hamda ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, degan xulosalarni oladi. „Psixolingvistik va ijtimoiy xususiyatlar haqida gapirganda –o'quv dasturi allaqachon kontekstdadir. Ya'ni, til ta'limi „o'qishni o'rganish“ va „matn va kontekst“dan iborat. (Jonston 2011) (Xuddi shu kabi biz ham rus tilida o'qiy olmagan sinov guruhimiz a'zolarini 2 классРусскийязык (1) darsligi orqali 1,5 oy davomida harflarni o'rgatib, o'qish tezligini 10 ta so'zdan 37-50ta so'zgacha, 6-7 ta lug'at zaxirasidan 100 ta lug'at zaxirasigacha yetkazib oldik. Asosiy maqsadimiz bo'lgan badiiy matnlar bilan ishlash mashg'ulotlarimizni 30-kundan boshladik).

Tajribalarda 75% dan yuqori o'qish qobiliyatiga ega o'quvchilar tadqiqot oxirida eng yaxshi natijalar ko'rsatganligi aniqlangan. (Senechal Tomas, Daley (16), Otto (17) Bolalar adabiyoti 3-sinflarda ovoz chiqarib o'qiladi. (Kelly 11) U bolalarning tushunish,

muhokama qilish, yozishga bo'lgan qiziqishlarini o'rganadi. "Van Sledright va Kelly (11) o'z tadqiqotida 5-sinf o'quvchilari o'zlari tanlagan kitoblari orqali o'rganish jarayoni ham ular da fikrlash rivojlangani va qaror qabul qilish qobiliyati oshganini ko'rsatgan. Angeletti tadqiqotida esa 20 nafar talaba tomonidan tanlangan kitoblar orqali o'qitish til bilish bilan birga tanqidiy fikrlash va o'qish jarayoniga nisbatan ijobiy xulq-atvorni namoyon etgan" (Chelkan Go'l tahlili). Katarina Ekonomining (10) tadqiqotida esa o'rta maktabning yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida shved tilini ikkinchi til sifatida (L2) o'rganishda badiiy adabiyotning roli ko'rib chiqilgan. Bu tajribada 3 guruhga bo'lingan jami 16 o'quvchi 70 daqiqalik 12 ta darsda ishtirok etgan. O'quvchilar qurama bo'lib, 9 ta ona tiliga ega, ya'ni 9 xil millat. Tadqiqotchini xuddi biz kabi ikkinchi tilda yoki chet tilida oddiy o'qish ko'nikmasiga ega bo'la olmayotgan o'quvchilarning til o'rganishida adabiyotni vositachi qilish qiziqtirgan. U o'z maqsadi uchun yoshlar bilan zamon va makonda teng holatda bo'lgan adabiy qahramonlarni tanlagan. Ya'ni Marjona Baxtiyoriyning eron millatiga mansub shved muhojirlari hayotidan olingan "Buni xohlaganingdek nomla, jin ursin!" nomli zamonaviy romanini audiomatn ko'rinishida eshittirilib o'quvchilarning matnga, adabiy qahramonlarga va ular orqali o'z hayotlariga solishtirish nuqtayi nazaridan esse, og'zaki bahs va qisqa qaydlardagi ishlari orqali xulosalar olingan. Xulosalardan biri shunday edi: Adabiyot ta'limi jamiyatning turli qatlamiga mansub bo'lgan o'quvchilarni birlashtirishi, ular da ikkinchi tilni ham, bola shaxsini ham rivojlantirishga olib boruvchi vosita bo'lishi mumkin. (10) Biz ham badiiy matnlar qiziqarli syujet asosiga qurilganligi, dialoglar so'zlashuv uslubiga yaqinligi hamda harakat bildiruvchi birikmalar keng qo'llanganligi tufayli tilni o'quvchi tayyor holda qabul qiladi, tanish so'z orqali butun birikmani taxminiy tushunish tilni tabiiy va ongli o'rganish, his qilishga yordam beradi, tilning grammatik xususiyatlarini qoidalar asosida emas, tayyor sintaktik konstruksiyalar (qoliplar) asosida o'rganadi va bu jarayon o'quvchini zeriktirmaydi, deb hisoblaymiz. Badiiy uslubda muallif nutqi o'zini adabiy tilning boy, obrazli, ishlangan holda namoyon etsa, turli adabiy qahramonlar nutqida muallif milliy tilning shirali va jozibador, jonli ko'rinishini aks ettiradi. Badiiy uslubning inson ongigagina emas, uning tuyg'ulariga ham katta ta'siri tufayli o'quvchilarda o'zaro ruhiy-ma'naviy uyg'unlik kayfiyati paydo bo'ladi. Tajribadagi sinov guruhining rus tilidagi va ona tilidagi o'qish tezligi notanish matnni o'qiganda bir daqiqada 50 ta so'zdan ortiq bo'lishi nazarda tutilgan. Ammo to'rt nafar **respondent**larimizdan barchasining o'qish tezligi bu talabga javob bermadi. Shu sababdan bir yarim oy davomida (1.11.2022 – 13.12.2022 gacha) ular bilan o'qish tezligi (ulardan 3 nafari krill alifbosini to'liq bilmaydi, bir daqiqada 10ta so'zdan kam o'qiydi, lug'at boyligi o'rtacha 5-6 ta so'zdan iborat edi), o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish, gapirish ko'nikmalari ustida ishlendi. Quyida shu mashg'ulotlarimizning borishi, ularning sinov natijalari haqidagi ma'lumotlar jadvallarini, bir yarim oyda o'sish ko'rsatkichini aniqroq anglatish uchun o'quvchilarga berilgan topshiriq va uyga vazifalarni ham keltirdik:

Birinchi noyabr (2022-yil)

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga rus tilini badiiy matnlar orqali o'rgatish.

I sinov – ona tilidan til ko'nikmalarini aniqlash L2 rus tilidan o'qish tezligi va so'z zaxirasini aniqlash

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'qish tezligi	O'qish tezligi	Tinglab tushunish*	Son so'z turkumi*	Fe'l so'z turkumi*	Lug'at boyligi (so'z turkumlariga nisbati)
		Ona tili	Rus tili	Ona tili	Matn asosida		Rus tili
1.	Respondent 1	38/2*	46/3	0	0	1	7ta ot
2.	Respondent 2	18/3	20/2	1	0	1	4ta: 2olmosh, 2ot
3.	Respondent 3	23/1	23/1	1	1	2	2ta olmosh 4 ta ot
4.	Respondent 4	48/1	58	1	0	2	9ta ot

*1. 2ta xato o'qilgan so'z

*2. "Olim bo'lmoqchiman" matni. 1-savol. Matnda qanday kasblar nomi keltirilgan? (o'qituvchi, olim)

*3. Matndadagi son so'z turkumiga oid so'zlarni keltiring. (O'quvchilarga bunday so'zlar haqida tushuncha berilib, topshiriq oydinlashtirildi). 5ta, 150 kishi, 10 minglab nusxada, 100 minglab xonadonga;

*4. Matndagi fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni keltiring. (O'quvchilarga harakat va holat bildiruvchi so'zlar haqida tushuntirilib, topshiriq oydinlashtirildi). O'yladim, egallagan, o'rgatish, o'qish, yozish;

O'quvchining rus tilidan o'qish tezligini tekshirish uchun bir bo'g'inli va ikki bo'g'inli so'zlardan tarkib topgan sodda dialog taqdim etilgan.

Xulosa:

1. O'quvchining rus tilidan o'qish tezligini tekshirish uchun bir bo'g'inli va ikki bo'g'inli so'zlardan tarkib topgan sodda dialog taqdim etilgan. Ushbu dialogda bir so'z bir necha marta takrorlangan o'rinlar ko'p. Shuning uchun 1 daqiqada 58, 46 tagacha so'z o'qilgan. Agar notanish matn asosida o'qish tezligi sinalsa, avvalo, o'quvchilar harflarni tanimaganlari, qolaversa, talaffuz va o'qishda qiynalishlari tufayli ko'rsatkich 1 daqiqada 10 ta so'zga ham yetmaydi. Respondentlarda o'qish, yozish, to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini hosil qilish kerak.

2. Sinov guruhining ona tilidan tinglab tushunish ko'rsatkichlari ham yuqorisi 50%, quyisi 20%.

3. Sinov guruhining rus tilidan so'z zaxirasi yuqorisi 9 ta so'z (hammasi ot turkumiga oid), quyisi 4 ta so'z (2 ta olmosh, 2 ta ot)dan iborat. Bu yangi tilni ikki oy (maktabda sentyabr, oktyabr oylarida 2-sinf rus tili darsi o'tilgan) o'rganilganiga nisbatan ham yo'q darajada.

Uyga vazifa: Ona tilidan ham, rus tilidan ham o'qish tezligini 10 ta so'zga ko'paytirish; rus tili darsligidan 21- sahifagacha 16 ta harfni 1 qatordan yozib, har bir harfga bittadan ruscha so'z misol keltirib yozish.

Ikkinchi noyabr

O'quvchilarning ona tilidagi til ko'nikmalarini (o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish) aniqlash (II sinov)

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'qish tezligi (Ona tili) "Kundaligimdagi "2" matni*	Tinglab tushunish*	O'qituvchi o'quvchilarni qanday sifatlar bilan ta'riflaydi? *	Matndan qanday xulosa kelib chiqadi?*	Diktant* (krill alifbosi)
1	Respondent 1	44/1 (xato o'qilgan so'z miqdori) 4b	12	0	Axir buni ham (ya'ni kundalikni. Tahrir bizniki) olib qo'yish kerak.	10
2.	Respondent 2	19/1 1b	8	1	–	8
3.	Respondent 3	38/1 4b	11	1	Chunki yaxshi, aldamasdan o'qish kerak	15
4.	Respondent 4	44/1 4b	18	1	Men, demak, kundaligimni yirtmasligim kerak.	14

* Kundaligimdagi "2"

Bu kundalikka 34 yil bo'ldi. 2-sinfda tutgandim. Odatda o'quvchilarimga shu kundaligimni namuna qilib ko'rsataman. Lekin ular ancha sergak. Hech narsani nazardan chetda qoldirishmaydi. Sho'x o'quvchim Jasurbek: "Ustoz, siz ham "2" baho olganmisiz?" – deb so'radi. Shunda kundaligimning 42-sahifasidagi katta "2"ni esladim. Matematika fanidan olgandim. O'quvchilarimning ko'zlari katta – katta bo'lib ketdi. Kundalikni qo'lma – qo'l olib tomosha qila boshlashdi. Bir o'quvchim: "Uy vazifasini tayyorlab kelmaganmidingiz, ustoz?" – dedi. Aslida o'shanda yangi mavzuga quloq solmay she'r yozib turgandim. Ustozimning savoliga javob berolmay "2" olganman. Ruxshona: "Nega shu paytgacha bu "2"ni ko'tarib yuribsiz, yirtib tashlamaysizmi?" – deb qoldi. Uning boshini silab: "Inson hayotda rostgo'y bo'lishi kerak. O'z kamchiliklarini tan ola bilish yaxshi fazilat. Faqat yutuqlar bilan g'ururlanish insonga zarar keltiradi. Xatolarni tushunib yetishni o'rganish lozim. Bunday fazilat egalari hayotda to'siqlarga duch kelganda dovdirab qolmaydi. Ularni yengishga kuch topa oladi", – deya nasihat qildim. Agar "2" bahoni yirtganimda sizlar menga ishonmay qolardingiz. Kundalikning sahifasi yirtilganini ziyrak bolalar darrov bilib oladi", – dedim so'zim yakunida.

* Xotira mashqi: Jami 135 so'zning orasidan yodingizda qolgan so'zlarni yozing.

* Javoblar: sho'x, ziyrak, sergak.

* Matndan qanday xulosa kelib chiqadi? – Inson rostgo'y bo'lishi kerak. U o'z kamchiliklarini tan olib, xatolarini tushuna bilsa, hayotda to'siqlarga duch kelganda dovdirab qolmaydi.

* O'rganilgan 16 ta krill alifbosi tovushlari o'qituvchi tomonidan talaffuz etilganda o'quvchi ularni qay darajada yoza oldi?

Uyga vazifa: Rus tili kitobining 28-betigacha harflarni (26 harf) yozib, ularga bittadan ruscha so'z misol keltirish; 28-sahifagacha o'qish, o'qish tezligini oshirishga harakat qilish.

Xulosa:

1. Ona tilida notanish matndan o'qish tezligi: yuqorisi 1 daqiqada 44 ta so'zga (butun matnning 32.5% i), quyi ko'rsatkich 19 ta so'zga (butun matnning 14% i) teng.

2 O'qilgan matndan eslab qolib yozishda eng yuqori natija 13%, eng past natija 6%.

3. Portretni tushunish, ta'rif-tavsiflash o'rtacha 33%.

4. "Matndan qanday xulosa kelib chiqadi?" savolini 2-sinf o'quvchilariga tushuntirish murakkabliklar tug'dirdi. Ularga "Zumrad va Qimmat" ertagini eshitgansiz, multfilmini ko'rgansiz. Multfilm tugagach, undan qanday xulosa chiqardingiz? Ya'ni, "Demak, qanday bo'lish kerak va qanday bo'lish kerak emas ekan", deb savol berilganda ular "Aqlli, odobli, mehnatsevar, mehribon bo'lish kerak. Dangasa, uyquchi, yomon, odobsiz bo'lish kerak emas ekan", deb javob berdilar. Va biz buni "Kundaligimdagi "2" matniga qiyoslab, bu matndan qanday xulosa chiqardingiz?, deb savol qo'yganimizda faqatgina bir respondentimiz " Aldamasdan o'qish kerak" degan javob bilan matn xulosasiga yaqinlashgan. Shunday qilib, o'quvchilarda voqeani bayon qilish ko'nikmasi bor, ammo matn asosida fikrlash, xulosa chiqarish ko'nikmasi hali shakllanmagan, degan to'xtanga kelamiz. Kichik yoshdagi o'quvchilarni badiiy matn orqali rus tlini o'rgatish uchun ularning ona tilida matnni o'qish va tushunishini rivojlantirish juda muhim. Chunki ikkinchi tilni matn orqali o'rganyotganda bola uni so'zma-so'z tarjima qilishga urinadi, lekin mazmuniy chuqur tushuncha shakllanmaydi. Bu esa til o'rganishda faol qabul va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini sustlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Русский язык 2 класс. Учебник для школ среднего общего образования с узбекским языком обучения. Ташкент 2021
2. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism.umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. toshkent – 2021.
3. "Donoword" jurnali, 16.04.2019.
4. Алам М.А. И Ашрафуззамон.М. (2018) Изучение лексике на высшем уровне: стратегии, методы и материалы.онлайн журнал « новые горизонты в образовании» (tojnedi) 8 (3).109-117.
5. Ашрафуззамон м. и алам м.а. (2017) стиль использования языка студентами на facebook, мессенжер и электронной почте на уровне высшего образования в бангладеш (журнал primeuniversity, dakika) бангладеш, 11 (2)
6. Krashen. s. (2003). Explorations in language acquisition and use. Portsmouth: Heinemann.
7. Чо. К. С. Ан. Ко.и крашен. с. д. (2005) влияние узкого чтения аутентичных текстов на интерес и способность к чтению на английском языке как иностранном.\\
8. Literacy: Free voluntary reading. aesthetic reading: efficient enough (journal of English language teaching 62 (2): 3-4 2020) stephen krashen posted: 2020 – 05 – 14
9. Education of foreign language and creative drama. january 2015. international journal of languages education 1 (udes 2015) doi: 10. 18298/ ijlet. 403
10. Reading fiction in a second language classroom. catarina economu. jan.2015. <https://doi.org/10.3042/edui.v6.23991>